

TASDIQLAYMAN

“O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat
nazorati markazi” DM (“UzTest” DM)
direktori, Ilmiy Kengash raisi

J. Kattaxodjayev

2025 y.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi huzuridagi Texnik jihatdan tartibga solish agentligi “O‘zbekiston ilmiy-sinov va sifat nazorati markazi” (“UzTest”) davlat muassasasi Ilmiy Kengashining 6-son qaroridan

KO‘CHIRMA

Raislik qildi: “UzTest” DM direktorining ilmiy ishlar bo‘yicha birinchi o‘rinbosari, ilmiy kengash raisi o‘rinbosari - G.Gaziyev.

Qatnashdilar: Ilmiy-texnik kengash raisi J. Kattaxodjayev, kengash a‘zosi (PhD) E.Xojiyev, (PhD) X.Qodirova, (PhD) A.Ibragimov, (PhD) N.Akbarova, t.f.d., dot. X.Mahmudov, ilmiy kotib (PhD) D.Kuvatov, hamda ilmiy texnik kengashga taklif etilganlar.

Kun tartibi:

1. Turli masalalar

Eshitildi:

Kengash kotibi (Ph.D) D.Kuvatovning O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 22-maydagi 304-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Oliy o‘quv yurtidan keyingi ta’lim tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Nizom asosida mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga qabul qilish bo‘yicha o‘tkazilgan suhbat bayonnomasi, mustaqil tadqiqotchilarning dissertatsiya mavzulari va ularning ilmiy raxbar, ilmiy maslaxatchilarini tasdiqlash masalasini Kengash yig‘ilishida ko‘rib chiqishga ruxsat berilishini so‘rab yozgan bildirishnomasining muhokamasi.

- bildirishnomaga mustaqil izlanuvchilarning ro‘yxati ilova qilingan (1-ilova).

Rais G.Gaziyev - Ushbu masala yuzasidan savollar va takliflar bormi? Agar bo‘lmasa, tasdiqlansin degan taklif tushmoqda. Tasdiqlash yuzasidan qarshilar - yo‘q, betaraflar - yo‘q, raxmat tasdiqlandi.

Qaror qabul qilindi:

1. Markaz bosh Ilmiy hodimi - kengash kotibi D.Kuvatovning bildirishnomasida ko‘rsatilgan masala bo‘yicha bergan axboroti ma’lumot uchun qabul qilinsin.

2. 2025-yil 27-mayda o'tkazilgan mustaqil izlanuvchilik (PhD)ga qabul qilish bo'yicha o'tkazilgan suhbat natijalari, dissertatsiya mavzulari va ularning ilmiy raxbarlari 1-ilovaga muvofiq tasdiqlansin. Shuningdek, ularning har olti oylik va yillik xisobotlarini atroflicha muhokama etib borish ta'minlansin (Mas'ullar: G.Gaziyev, D.Kuvatov, ilmiy kengash a'zolari).

Ilmiy Kengash kotibi



D. Kuvatov

“UzTest” DM doktoranturasiga mustaqil tadqiqotchilikka (PhD) qabul qilinganlarning ilmiy mavzulari va ilmiy rahbarlarini tasdiqlash bo‘yicha ma’lumot

№	F.I.Sh.	Ixtisosligi	Ilmiy rahbar yoki maslahatchi	Mavzu
1	Koshayev Ikramjan Aknazarovich	05.03.01 – Asboblar. O‘lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo‘yicha)	t.f.d.,dot. Turayev Shavkat Abduqayumovich	Korxonalarda integratsiyalashgan boshqaruv tizimlarini shakllantirishda sifat menejmentini takomillashtirish
2	Ismailov Muzaffar Ismailovich	05.03.01 – Asboblar. O‘lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo‘yicha)	t.f.d.,dot. Turayev Shavkat Abduqayumovich	Korxona va tashkilotlarning sifat menejmenti tizimlarida, jarayonlarni ro‘yxatga olishni avtomatlashtirilgan boshqarish
3	Yo‘ldoshev Ilhom Murodilla o‘g‘li	05.03.01 – Asboblar. O‘lchash va nazorat qilish usullari (tarmoqlar bo‘yicha)	t.f.d.,dot. Turayev Shavkat Abduqayumovich	Mahsulotning ishlab chiqarish sifati va samaradorligini oshirishda metrologik ta’minotning o‘rni